

O'ZBEK TILIDA GAP KENGAYTIRUVCHILARI VA SO'Z KENGAYTIRUVCHILARI TAHLILI

*Termiz davlat universiteti o'zbek
filologiyasi fakulteti talabasi
Xoshimova Husnida Dilshodbek qizi*

Annotatsiya. O'zbek tilshunosligida bugungi kunga qadar ham to'laligicha o'z isbotini topmagan bir qator muammolar mavjud. Bir guruh tilshunoslarning bergan qoidasiga boshqa bir guruh tilshunoslarning bergan qoidasi mos kelmaslik holatlari nihoyatda ko'p uchraydi. Maqolada so'z kengaytiruvchisi va gap kengaytiruvchisi sifatida qabul qilingan sintaktik bo'laklar va ularning xususiyatlari haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: gap kengaytiruvchisi, so'z kengaytiruvchisi, ega, kesim, aniqllovchi, to'ldiruvchi, hol, bevosita bog'lanish, bilvosita bog'lanish

Abstract. There are a number of problems in Uzbek linguistics that have not been fully proven to this day. There are extremely many cases where the rule given by one group of linguists does not correspond to the rule given by another group of linguists. The article describes syntactic fragments and their properties, which are accepted as word expanders and sentence expanders.

Keywords: clause expander, word expander, possessive, participle, determiner, complement, case, direct conjunction, indirect conjunction

Gap kengaytiruvchisi gap tarkibida ma'lum bir bo'lak vazifasida kelayotgan so'zlarning lug'aviy ma'nosiga emas, balki gapning kesimini shakllantirgan morfologik vositaga bog'lanadi. Gap kengaytiruvchisi sifatida ega gapning kesimlik qo'shimchalari tarkibidagi shaxs-son bilan, hol esa zamon, modallik, tasdiq-inkor shakllari bilan bog'lanadi. Gap kengaytiruvchisi nima sabadan aynan kesimga bog'lanishi kerak, boshqa bo'lakka bog'lansa bo'lmaydimi degan savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin. Kesim gapning mazmuniy markazi hisoblanadi. U yolg'iz o'zi ham gap bo'lib kela oladi:

—Ketasizmi?

—Qolaman

Ega — gapning bosh bo'laklaridan biri; gapni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Ega fikrning kimga, nimaga qarashli ekanligini anglatadi, shu jihatdan kesim bilan o'zaro yaqin bog'langan. Ega, odatda, kesim orqali, kesim esa ega orqali, bir-biriga nisbat berish bilan belgilanadi, ya'ni eganing nechinchi shaxsda ekanligi, birlik yoki ko'plik sonda turganligi kesimga ta'sir qiladi:

Gulnora bugun maktabga borasanmi?

Men ota-onamni juda yaxshi ko'raman.

(Ega gap kengaytiruvchi vosita sifatida to'g'ridan to'g'ri kesimga shaxs-son qo'shimchalari (-san, -man) orqali bog'lanmoqda.

Hol gapning ikkinchi darajali bo'laklaridan biri bo'lib, ish-harakatning belgi-sifatini, uning bajarilish usulini, shu bajarilish bilan bog'liq bo'lgan o'rin, payt, sabab, maqsad, shart-sharoit, miqdor-daraja kabi xususiyatlarini ko'rsatadi:

Qizlar bog'ga borishdi (o'rin)

Ertaga darslarimiz vaqtlitiroq tugaydi (payt)

Maktabga aylanib yurish uchun emas, o'qish uchun kelinadi. (maqsad)

Jasur tez, Ilhom sekin o'qir edi (miqdor-daraja)

Ular yaxshi o'qimaganliklari uchun bugun qiynalishmoqda .(sabab)

Qiz onasiga to'lib-toshib, to'lqinlanibgapirardi. (tarz, ravish, vaziyat)

(Hol gap kengaytiruvchi vosita sifatida to'g'ridan to'g'ri kesimga bog'lanmoqda)

Aniqlovchi — gapning ikkinchi darajali bo'lagi. Shaxs,narsa, hodisa nomiga tobelanib, uning belgisi (xususiyati, sifati) ni anglatadi. Aniqlovchiga gap kengaytiruvchisi emas, balki so'z kengaytiruvchisi deb qaraladi. Buning sababi yuqorida aytganimiz kabi gap kengaytiruvchilari kesimga to'g'ridan to'g'ri bog'lanishi kerak, aniqlovchida esa bunday xususiyat mavjud emas, ya'ni u kesimga bilvosita (avval boshqa bo'lakka bog'lanib, o'sha bo'lak orqali kesimga) bog'lanib keladi:

Bog'da qizil, sariq, pushti gullar ochilib turipti. Ushbu gapda qizil, sariq, pushti aniqlovchilari gullar otiga bog'lanib, keyin u orqali ochilib turipti kesimga bog'lanmoqda. Agar gullar oti, egasi bo'lmaganida u kesimga bevosita bog'lana olmagan bo'lar edi. Bog'da qizil, sariq, pushti ochilib turipti deganimizda sintaktik bog'liqlik mavjud bo'lsa-da, semantik(mazmuniy) bog'liqlik mavjud emas. Aniqlovchini hech ikkilanmay so'z kengaytiruvchisi deb e'tirof etishimiz mumkin.

To'ldiruvchi gapning ot yoki otlashgan so'z bilan ifodalanadigan, harakatning obykti bo'lgan predmetni ko'rsatib, asosan kesimga bog'lanadigan bo'lagi. U o'zi bog'langan so'z — kesimga nisbatan grammatik tobe munosabatda bo'ladi. To'ldiruvchi kesimga bevosita bog'lanishini inobatga olgan holda biz uni , aslida, gap kengaytiruvchisi sifatida talqin etishimiz kerak edi. Lekin R.Sayfullayevaning darsligida to'ldiruvchi so'z kengaytiruvchisi sifatida talqin qilingan.

Kitobni tushunishning yaxshi tomonlari ko'p. Ushbu misolda to'ldiruvchi (kitobni so'zi) so'zni kengaytirib kelmoqda, ya'ni to'ldiruvchi (kitobni) aniqlovchini (tushunishning) kengaytirib kelyapti degan fikr olg'a suriladi. Men bu fikrga qo'shilmayman. Negaki, bu yerda kitobni tushunishning ajralmas birikmas sifatida tahlil qilinishi kerak. Hech qachon nimani nima qilishning yaxshi tomonlari ko'p deb savol berilmaydi. Nimaning yaxshi tomonlari ko'p deb savol beriladi. Sintaktik tahlil jarayonidaularga bittagap bo'lagisifatida qaraladi. Shu sababdan ham biz uni so'z kengaytiruvchisi deb emas, balki gap kengaytiruvchisi deb e'tirof etishimiz kerak.

To'ldiruvchi kesimga bevosita bog'lana oladi, so'z kengaytiruvchisi esa kesimga bevosita bog'lana olmaydi (masalan, aniqlovchi)

Bog'bon bog'dagi gullarni, daraxtlarni parvarish qiladi. Talabalar imtihonlarni a'lo baholarga topshirdilar. Gapda gullarni, daraxtlarni, imtihonlarni to'ldiruvchilari parvarish qiladi, topshirdilar kesimlariga bevosita bog'lanmoqda. Shunday ekan, nega biz to'ldiruvchini gap kengaytiruvchisi sifatida emas, so'z kengaytiruvchisi sifatida talqin etishimiz kerak? To'ldiruvchi hech ikkilanishlarsiz gap kengaytiruvchisi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ne`matov H. va b. O'zbek tili struktural sintaksisi. -T.: Universitet, 2000.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T., 2010. O'quv qo'llanma. O'zMU IK tas.
3. Mengliyev B. O'zbek tilining struktur sintaksisi –Qarshi., 2003.
4. O'zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. - T.: Fan, 1975. - 548 b.
5. S.Raximov, B.Umirqulov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism. T.: O'qituvchi, 2003. Darslik. O'z R OTV tas.
6. N.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism. T.: O'qituvchi, 2005. Darslik. O'z R OTV tas.
7. Omonturdiyev J. Omonturdiyev A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Termiz, 2012.